

## YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL YONDASHUV

**Xusanova Zulfiya Rahmatullaevna**

Andijon davlat universiteti,  
“Menejment” kafedrası  
dotsenti, i.f.f.d., PhD.

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar, Prezident farmonlari hamda ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarining iqtisodiy faollikka ta‘siri o‘rganildi. Xotin-qizlar uchun imtiyozli kreditlar, kasb-hunar kurslari, grantlar va davlat jamg‘armalari faoliyati tizimli ravishda baholandi. Shuningdek, “Ayollar daftari”, “Hamroh” dasturi va moliyaviy kodeks mexanizmlarining tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni yoritildi. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha huquqiy va moliyaviy mexanizmlar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, bandlikni oshirish hamda hududlarda biznes muhitini rivojlantirishga xizmat qilganini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** ayollar tadbirkorligi, gender tengligi, huquqiy mexanizm, institutsional yondashuv, imtiyozli kredit, bandlik, kichik biznes, iqtisodiy faollik.

### **Аннотация**

В данной статье проанализированы правовые и институциональные основы развития женского предпринимательства в экономике Нового Узбекистана. В ходе исследования изучено влияние законов, президентских указов и государственных программ, направленных на обеспечение гендерного равенства и повышение экономической активности женщин. Системно оценены механизмы льготного кредитования, профессионального обучения, грантовой поддержки и деятельности государственных фондов. Также раскрыта роль механизмов «Женской тетради», программы «Hamroh» и финансового кодекса в развитии предпринимательства. Результаты исследования показали, что правовые и финансовые механизмы поддержки женского предпринимательства способствовали укреплению экономической стабильности, росту занятости и развитию деловой среды в регионах.

**Ключевые слова:** женское предпринимательство, гендерное равенство, правовой механизм, институциональный подход, льготный кредит, занятость, малый бизнес, экономическая активность.

### **Abstract**

This article analyzed the legal and institutional foundations of women’s entrepreneurship development in the economy of New Uzbekistan. The study examined the impact of laws, presidential decrees, and support programs aimed at ensuring gender equality and increasing women’s economic participation. Preferential loans, vocational training courses, grants, and state support funds were systematically evaluated. The role of the “Women’s Notebook,” the “Hamroh” program, and the financial code mechanisms in entrepreneurship development was also highlighted. The

findings demonstrated that legal and financial support mechanisms for women entrepreneurs contributed to strengthening economic stability, increasing employment, and improving the business environment in the regions.

**Keywords:** women's entrepreneurship, gender equality, legal mechanism, institutional approach, preferential loan, employment, small business, economic activity.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlik darajasini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki kengaygani sari kichik biznes rivojlanadi, xizmat ko'rsatish sohasi faollashadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu sababli ko'plab davlatlarda ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish, ularni moliyaviy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda biznes yuritish uchun zarur sharoitlarni yaratish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan.

Yangi O'zbekistonda ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. So'nggi yillarda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ayollar uchun imtiyozli kreditlar ajratish, grant va subsidiyalar berish, bepul o'quv kurslarini tashkil etish, "Ayollar daftari" tizimini joriy qilish hamda hududlarda tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish orqali sohada institutsional mexanizmlar shakllantirildi. Ushbu chora-tadbirlar xotin-qizlarning biznes yuritish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi ham bosqichma-bosqich takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, Prezident farmon va qarorlari ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirishning muhim huquqiy asosi bo'ldi. Ushbu hujjatlar orqali ayollarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, moliyaviy resurslardan foydalanishi, kasb-hunar o'rganishi va biznesini rivojlantirishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ayniqsa, hududlarda yashovchi xotin-qizlarni oilaviy biznes, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham ayollar tadbirkorligi uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Elektron tijorat platformalari, onlayn savdo tizimlari va raqamli moliyaviy xizmatlar xotin-qizlarning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada ayollar kichik hajmdagi biznes faoliyatini uy sharoitida tashkil etish, mahsulot va xizmatlarini internet orqali sotish hamda mijozlar bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ayollar bandligini oshirish va oilalar daromadini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi, biznes yuritish bo'yicha

amaliy tajribaning yetarli emasligi, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarining pastligi hamda bozorga chiqishdagi qiyinchiliklar xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini tahlil qilish, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash hamda sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabr O'RQ 562-son "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar to'g'risida"gi Qonuni<sup>1</sup> asosiy qonunlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi barcha sohalarda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ushbu qonun umumiy 7 bob va 32 moddadan iborat bo'lib, ushbu qonuning 20-moddasi iqtisodiy sohada hamda tadbirkorlik faoliyatida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida bo'lib, unda "davlat organlari va mulk shaklidan qat'iy nazar tashkilotlar rahbarlari jamiyatning iqtisodiy resurslardan, shu jumladan ko'char va ko'chmas mol-mulk, yer, moliyaviy aktivlar, kreditlar, ijtimoiy jamg'armalardan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining erkin tanlangan turlaridan xotin-qizlar va erkaklarning teng foydalanishini ta'minlashi shart. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlaydi"[2], deya ta'kidlangan. Ushbu qonun orqali "Ayollar daftari", ayollarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imtiyozli, ularning tadbirkorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun bepul o'quv kurslari, shuningdek, davlat tomonidan grantlar va subsidiyalar kabi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar joriy etilgan.


Mazkur qonunning kuchga kirishi bilan xotin-qizlar va erkaklarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishlari kafolatlandi hamda ayollarning tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullanish, uni boshqarish va rivojlantirishda vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni<sup>2</sup> ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur Farmon mamlakatning eng ahamiyatli strategik hujjatlaridan biri hisoblanib, mamlakatning

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-son "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4494849>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/6600413>

uzoq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotini ko'rsatib beradi. Ushbu Farmonda mamlakatning ta'lim, iqtisodiyot, mehnat bozori, ijtimoiy himoya, gender tengligi siyosati hamda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilab olingan. Mazkur Farmonda ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni jamiyatning faol a'zolariga aylantirishga qaratilgan chora dasturlar ham keltirib o'tilgan (1-rasm).



**1-rasm. O'zbekiston-2030-strategiyasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan yo'nalishlar[3]**

Mamlakatning mehnat bozorida xotin qizlar uchun imkoniyatlarning yetarli emasligi, xususan, ishga qabul qilish jarayonlarida va yuqori lavozimlarga saylanishda bilvosita to'siqlarning mavjudligi hamda ayrim faoliyat yo'nalishlarida mehnat resurslaridan foydalanish jarayonida norasmiy cheklovlarning mavjudligi ayollar uchun asosiy to'siqlardan biri edi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotning metodologik asosi tizimli yondashuv, qiyosiy huquqiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan iborat. O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari yaxlit tizim sifatida o'rganildi. Xususan, davlat dasturlarining soha rivojiga ta'siri ilmiy tahlil qilindi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi O'zbekistondagi hozirgi vaziyat bilan taqqoslandi va ayollarning iqtisodiy hayotdagi ishtirokining ijtimoiy barqarorlikka ta'siri baholandi. Turli yillarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning maqsadlari va natijalari taqqoslandi.

Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'RQ-562-sonli Qonuni, Prezident farmonlari va qarorlaridan foydalanildi. Xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi, tijorat banklari va Savdo-sanoat palatasi kabi institutlarning ayollar tadbirkorligini moliyalashtirish va o'qitishdagi roli o'rganildi. Muammolar va ularning yechimlari jadvalda tizimlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida 2019-yil 7-mart PQ-4235-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori<sup>1</sup> qabul qilindi. Mazkur qonun doirasida bir qancha quyidagi vazifalar belgilangan:

- bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan hamkorlikda uzoq muddat bola parvarishlash ta'tilida bo'lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va ularning ishga joylashishiga ko'maklashish;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko'maklashish;

- ayollarning o'z biznesini tashkil etish va yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalari tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo'llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'qitishni tashkil etish;

- zarur hollarda, faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo'sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko'maklashish;

- tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o'z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishonchli hamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko'maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga ko'maklashish;

- norasmiy faoliyat yuritayotgan hunarmand ayollarga ro'yxatdan o'tish, "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish orqali soliqlar va boshqa turdagi imtiyozlardan foydalanishda hamda imtiyozli kredit olishda amaliy yordam ko'rsatish[4].

Ushbu qonun doirasida ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirish, ularga bu yo'nalishda bilim va ko'nikmalarni berish uchun maxsus markazlar tashkil etildi. Maxsus dasturlarga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan ayollar tuman, Shahar hokimi va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan shakllantirilgan ro'yxat bo'yicha maxsus o'quv kurslarida o'qitishi belgilab berildi. Ushbu o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan ayollar uchun tuman va Shahar xotin-qizlar qo'mitasi raisi tavsiyasiga asosan tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash uchun 3 yilgacha muddatda 6 oylik imtiyozli davr bilan yillik 8 foiz stavkada imtiyozli kreditlar ajratildi. Respublikaning xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan tijorat banklariga yillik ajratiladigan 100 mlrd.so'm mablag'lari ushbu imtiyozli kredit manbasi etib belgilandi va ushbu mablag'ning kamida yarmi chekka hududlarda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-mart PQ-4235-son "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>

istiqomat qiladigan ayollarga o‘zlarining bizneslarini boshlash va rivojlantirish uchun yo‘naltirilishi ta’kidlandi.

Hududlarda 25-49 yoshlilar 3 yoshgacha bo‘lgan farzandi bilan va farzandsiz uy xo‘jaliklarida yashayotgan aholi orasida bandlik koeffitsiyenti aniqlanib, ishsiz ayollarni turli xil kasblarga yo‘naltirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu qonunning amaliy natijalari sifatida chekka qishloq hududlarida ham ayollar o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini olib borayotgani bilan izohlashimiz mumkin. Ayniqsa chekka qishloq hududlarida xizmat ko‘rsatish sohasida ayollar ancha faol ishtirok etmoqda.

Ushbu qonun yordamida ayollar uchun quyidagi muammolarga barham berildi(1-jadval)

### 1-jadval

#### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ -4235-son Qarorining muammolarni bartaraf etishdagi ahamiyati[5]**

<b>Muammo</b>	<b>Berilgan yechimlar</b>
Bank kreditlarini olish	Imtiyozli va kafolatsiz kreditlar
Kam tajriba	Ta’lim va kasbga oid o‘quv kurslari
Bozorga chiqishdagi to‘siqlar	Raqamli platforma va innovatsion texnologiyalar
Ijtimoiy to‘sqinlik	Ijtimoiy dasturlar va ta’lim yo‘nalishlari

Ushbu qaror xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatida huquqiy, moliyaviy va institutsional jihatdan himoya qilishni kuchaytirib, mavjud to‘siqlarni bartaraf etdi, shuningdek, mamlakatda ayollar tadbirkorlik sohasida uzoq muddatli rivojlanishi uchun huquqiy asos bo‘ldi.

Mamlakatda ayollarning faolligini oshirish, ularni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning barcha jabhalarida, xususan, ularning ta’lim va kasbiy mahoratlarini oshirish, ayollar orasida bandlik darajasini yaxshilash, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo‘llab quvvatlash, hududlarda “Ayollar daftari”ni shakllantirish va unga jalb qilingan ayollarning muammolarini tizimli o‘rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish borasidagi jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori<sup>1</sup> qabul qilindi.

Ushbu qaror doirasida ayollarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etilishi belgilab berildi va ushbu jamg‘armaning asosiy vazifalari etib quyidagi vazifalar belgilandi:

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>


- og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogironligi bo‘lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish;

- xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sog‘lig‘ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o‘qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish;

- xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag‘larini belgilangan tartibda joylashtirish;

- xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish[6].

Ushbu jamg‘arma mablag‘larining shakllanish manbalari davlat byudjeti mablag‘lari, jamg‘armaning bo‘sh turgan pul mablag‘larini tijorat banklariga depozitga joylashtirish orqali olingan daromadlar, aholi va korporativ tuzilmalarning xayriyalari, xalqaro tashkilotlarning grantlari bo‘lib hisoblanadi. Jamg‘armada yig‘ilgan mablag‘lardan har yili AT “Xalq banki”ga 100 mlrd. so‘m miqdorida yo‘naltiriladi va bu mablag‘lar ayollarga o‘z tadbirkorliklarini boshlash uchun Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz past stavkada taqdim etiladi (2-rasm). Joylarda tashkil etilgan o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan ayollarga hokim yordamchisining tavsiyasiga asosan tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 3 yilgacha muddatda 6 oylik imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so‘mgacha bo‘lgan pul mablag‘lari ajratishi belgilangan.



**2-rasm. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasining mablag‘lari shakllanish va taqsimlanish jarayoni[7]**

Ushbu qonun doirasida tadbirkorlik, fermerlik, dehqonchilik, kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar berish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo'lgan 20 ta tumanda yashayotgan xotin-qizlarni oilaviy biznesga va xususiy tadbirkorlikning turli sohalariga keng jalb qilish, ushbu hududlardagi ayollarning bandligini ta'minlash uchun kichik korxonalar tashkil etish, "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" faoliyatini samaradorligini oshirish, ayollarning tadbirkorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv markazlarining ta'lim sifatini yaxshilash va qamrovini kengaytirish kabi rejalar ham belgilangan. Bundan tashqari, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tartibi belgilangan:

- bandligini ta'minlash;
- tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish bo'yicha ko'maklashish;
- tadbirkorlikka jalb etish;
- moddiy yordam ko'rsatish;
- turar-joy ijara kompensatsiyasini to'lash;
- tibbiy xizmat ko'rsatish;
- huquqiy yordam ko'rsatish;
- psixologik yordam ko'rsatish.

Ushbu qarorda ko'rsatilgan rejalar va chora-tadbirlarning amaliyotda amalga oshishi natijasida mamlakatdagi xotin — qizlarning tadbirkorlik sohasida ko'nikmalari shakllanib, ular orasida zamonaviy tadbirkorlik faoliyatlari bilan bog'liq munosabatlar tobora rivojlanib bormoqda.

Tahlillarga ko'ra, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy barqarorlik va bandlik darajasini yaxshilashga yetaklovchi yo'l sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiy sohada ayollarning faolligini oshirish, xotin-qizlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish bo'yicha qator chora-dasturlar amalga oshirilib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-mart PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori<sup>1</sup> muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentning ushbu qarorida xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan jami 100 million AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit resurslari ajratilishi belgilangan. Ushbu kreditlar AT "Xalq banki"ga 35 million AQSh dollari miqdorida, "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga 35-million AQSh dollari miqdorida va "Mikrokreditbank" ATBga 30-million AQSh dollar miqdorida taqsimlanib, kreditlar joylarda yetti yillik muddatda, uch yillik imtiyozli davr bilan, yillik 14 foiz stavka bilan ayollarga tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash va rivojlantirish uchun yo'naltirilishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, ushbu qaror doirasida Savdo-sanoat palatasi, AT "Xalq banki", "Biznesni rivojlantirish

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7 mart PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6831827>

banki” ATB “Mikrokreditbank” ATBda 3-rasmda keltirilgan ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va uni qo‘llab quvvatlash tizimi yaratildi.



**3-rasm. Tijorat banklarida yaratilgan xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimi[8]**

Ayollar orasida tadbirkorlik faoliyatini keng targ‘ib qilish, ularning tadbirkorlik bo‘yicha bilim va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha nafaqat hukumat idoralari balki maxsus tashkil etilgan korxonalar jadal ravishda faoliyat yuritmoqda. Xususan, “Hamroh” xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kompaniyasi ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha dasturlarni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son “Oil va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori<sup>1</sup> qabul qilindi. Ushbu qaror joylarda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan bir qancha maqsadlarni quyidagi qamrab oladi[9]:

- a) 2 million nafar xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash;
- b) 250 ming nafar xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish;
- c) 250 ming nafar xotin-qizlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish;
- d) 50 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish hamda ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkil etish.

Ushbu belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun “Hamroh” tadbirkor xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash dasturi orqali ayollarga tadbirkorlik sohasida,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-mart PQ-103-son “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7433397>

xususan, “yashil loyihalar” va IT (Information technology) sohasida biznes loyihalarini boshlash uchun, shu bilan birgalikda kamida 5 nafar ayolning tadbirkorligini boshlashga ko‘maklashgan 1 ming nafar “ustoz” tadbirkorlarga 50 million so‘mgacha bo‘lgan grantlar ajratish, ijobiy kredit tarixiga ega bo‘lgan ayollarga 100 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratish, ayol tadbirkorlar tomonidan kredit orqali sotib olinayotgan asbob-uskunalar yetkazib berilgunga qadar “Tadbirkorlikni rivojlantirish” AJ tomonidan kafillik taqdim etilishi belgilangan. Shuningdek AT “Xalq banki” va Savdo-sanoat palatasi birgalikda “Loyihalar fabrikasi” platformasi negizida yangi takomillashgan “Tadbirkor ayollar” platformasini ishga tushirish va ushbu platforma orqali tadbirkor xotin-qizlarga xom-ashyo sotib olishga ko‘maklashish, o‘zaro kooperatsiyani kengaytirish va mahsulotlarni sotish uchun bozorlar topish, malakali mutaxassislarni topish va ishga qabul qilish, loyihalar doirasida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularga yechim topish ko‘zda tutilgan. Ushbu qonunda shuningdek Savdo-sanoat palatasining yetakchi ishbiarmon ayollardan tashkil topgan Tadbirkor ayollar kengashi tashkil etilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib bu kengashning vazifasi quyidagilardan iborat[10]:

- muntazam ravishda hududlarga chiqib, tadbirkor xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- tadbirkor ayollarning ilg‘or tajribalarini boshqa hududlarda ommalashtirishga ko‘maklashish;
- avval tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlab, ularning muammolarini hal qilish va biznes g‘oyalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- tizimli muammolarni hal qilish yuzasidan Hukumat va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga takliflar kiritib borish.


O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari bilan birgalikda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus strategiya ishlab chiqib, joylarda ayollar uchun zamonaviy moliyaviy xizmatlarni taqdim etish, homiladorlik va tug‘ish ta‘tilini olgan ayollarga bank krediti bo‘yicha to‘lovlarni ma‘lum bir muddatga kechiktirib turish hamda hududlarda 1 million 300 ming nafar ayollarning bandligini ta‘minlash va tadbirkorlikka jalb etish kabi maqsadlarni ustuvor yo‘nalish qilib belgilab olgan.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-marta PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida<sup>1</sup> kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda-34 foizga, eksportda-34 foizga va aholi bandligini ta‘minlashda 75 foizga yetkazish asosiy maqsad sifatida belgilangan[11]. Mazkur Farmonda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun albatta mamlakatda xotin-qizlarni tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash zarur. Jumladan ushbu Farmonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning yaxlit tizimini joriy etish orqali tadbirkorlikka layoqatli va qiziqishi bor ayollarni aniqlash

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-mart PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7444738>

va ularga asosiy tadbirkorlik ko‘nikmalarini berish, tijorat banklari ko‘magida o‘zini o‘zi band qilgan xotin-qizlarga biznes loyihalarini shakllantirishda yordam berish hamda o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini tashkil etishga ko‘maklashish, samarali faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar bilan manzilli ishlash va ularni “champion” tadbirkorlar qatoriga kiritish va ayol tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotlarni respublikada mavjud bo‘lgan tijorat platformalariga joylashtirish orqali sotish jarayoniga yordam berish kabi maqsadlar ham ushbu Farmonning asosiy maqsadlaridan bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2025-yil 15-iyulda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksni joriy etish milliy nizomi<sup>1</sup> ham sohaga doir ustuvor jihatlarni qamrab oladi. Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksga to‘xtaladigan bo‘lsak, “bu kodeks Jahon banki tomonidan boshqariladigan bir nechta manfaatdor tomonlarning tashabbusi bo‘lib, u xususiy va davlat sektorlarini milliy darajadagi harakatlari va siyosatni muvofiqlashtirishga jalb qilish orqali tadbirkor xotin-qizlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan” [12] (4-rasm).



**4-rasm. Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha xalqaro kodeksning ustuvor yo‘nalishlari [13]**

Ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeks bugungi kunda jahonning 30 dan ortiq davlatlarida joriy etilmoqda. O‘zbekiston Markaziy banki ham shu kodeksga muvofiq holda milliy nizomni ishlab chiqdi hamda xotin-qizlar orasida mikro, kichik va o‘rta tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirish va ular uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish, moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish hamda innovatsion yechimlar orqali ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash bo‘yicha keng doirada amaliy ishlarni olib bormoqda.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksni joriy etish milliy nizomi. [https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt3613kxppedy/Nizon\\_We\\_fi-code\\_Uzbekiston.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt3613kxppedy/Nizon_We_fi-code_Uzbekiston.pdf)

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik sohasida xotin-qizlarning ishtirokini oshirish va ularning faoliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli davlat dasturlari olib borilmoqda. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan konstitutsiyaviy kafolatlar, gender tengligini ta‘minlovchi qonunchilik, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etib, kichik biznesda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda xizmat qilmoqda.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanganini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, davlat dasturlari hamda institutsional mexanizmlar xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning biznes yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hududlarda bandlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar amaliy natijalar berdi.

Tadqiqot davomida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning huquqiy bazasi bosqichma-bosqich takomillashib borayotgani aniqlandi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek Prezident qaror va farmonlari xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirishning muhim huquqiy asosini yaratdi. Ushbu hujjatlar orqali ayollarga imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunar o‘quv kurslarini tashkil etish, grant va subsidiyalar berish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi.

“Ayollar daftari” tizimi, “Hamroh” dasturi, Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hamda tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy dasturlar ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim institutsional vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi xotin-qizlarni oilaviy biznes, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik va kichik ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish orqali ularning daromad manbalarini shakllantirishga erishildi. Natijada hududlarda ayollar bandligi oshib, kichik biznes subyektlari sonining ko‘payishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarning ayollar tadbirkorligini rivojlantirishdagi ahamiyati ortib borayotgani aniqlandi. Elektron tijorat platformalari, onlayn savdo tizimlari, raqamli to‘lov xizmatlari va masofaviy ta‘lim imkoniyatlari ayollarning biznes faoliyatini boshlash va kengaytirishiga qulay sharoit yaratmoqda. Ayniqsa, uy sharoitida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar uchun internet orqali mahsulot va xizmatlarni sotish imkoniyatlari yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Biroq ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi, biznesni boshqarish bo‘yicha amaliy tajriba kamligi, bozorga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarining pastligi ayollar tadbirkorligining

barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli mavjud huquqiy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kengaytirish lozim. Imtiyozli kreditlar hajmini oshirish, garovsiz kredit ajratish mexanizmlarini soddalashtirish hamda uzoq hududlarda yashovchi xotin-qizlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, ayollarning biznes yuritish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini kuchaytirish zarur. Hududlarda tadbirkorlik markazlari faoliyatini kengaytirish, zamonaviy biznes boshqaruvi, marketing, raqamli savdo va moliyaviy savodxonlik bo'yicha amaliy treninglarni muntazam tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ayol tadbirkorlarning mahsulot va xizmatlarini ichki hamda tashqi bozorlarga olib chiqish tizimini rivojlantirish lozim. Elektron savdo platformalari bilan integratsiyani kuchaytirish, logistika xizmatlarini yaxshilash hamda eksport faoliyatiga oid maslahat va axborot xizmatlarini kengaytirish ayollar biznesining raqobatbardoshligini oshiradi.

To'rtinchidan, hududlarda "ustoz-shogird" tamoyili asosida tajribali tadbirkor ayollar va yangi faoliyat boshlayotgan xotin-qizlar o'rtasidagi hamkorlik tizimini rivojlantirish zarur. Bu amaliy tajriba almashish, biznes yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari samaradorligini muntazam monitoring qilish va ularning natijadorligini baholash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va amaliy yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy va institutsional islohotlar xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, bandlikni ta'minlash va kichik biznesni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi hamda aholi farovonligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 2-sentabrdagi O'RQ-562-son "Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4494849>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/6600413>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-mart PQ-4235-son "Xotin qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4230944>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-mart PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7 mart PQ-122-son “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6831827>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-mart PQ-103-son “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7433397>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-mart PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-7444738>

8. O‘zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksni joriy etish milliy nizomi. [https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt36l3kxppedy/Nizon\\_We\\_fi-code\\_Uzbekiston.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt36l3kxppedy/Nizon_We_fi-code_Uzbekiston.pdf)

9. O‘zbekiston Respublikasida ayollar tadbirkorligi bo‘yicha moliyaviy kodeksni joriy etish milliy nizomi [https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt36l3kxppedy/Nizon-We\\_fi-code\\_Uzbekiston.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/c25/s288i4t6aqb2ndgfkogxt36l3kxppedy/Nizon-We_fi-code_Uzbekiston.pdf)



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**